

## AVG‘ON GENOTIPIGA MANSUB AVLODLARNING TANA O‘LCHAMLARI VA TANA TUZILISHI INDEKSLARINING YO‘SH DINAMIKASIDA O‘ZGARISHI

**Turganbaev Ruzimbay Urazbaevich**

*q.h.f.d., professor Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali*

**Utemuratov Azamat Baxitbaevich**

*Tadqiqotchi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada avg‘on genotipiga mansub avlodlarning tana o‘lchamlarining tug‘ilgan davridan 12-oylik davrigacha yoshi dinamikasida o‘zgarishi aniqlangan bo‘lib, bunda asosiy ko‘rsatkichlar yag‘rin balandligi, gavdaning qiya uzunligi, gavda chuqurligi, gavda kengligi, gavda aylanasi va poycha aylanasing o‘lchamlarida ranggi kesimidagi farqlanishlar aniqlangan va xulosalar qilingan.*

**Kalit so‘zlar.** *Avg‘on genotipi, avlodlar, yoshi dinamikasi tana o‘lchamlari, rangi.*

**Аннотация.** *В данной статье определены промеры тела потомства афганского генотипа от рождения до 12 месяцев в возрастной динамике, определена параметры промеров тела высота в холке, косая длина туловища, ширина груди, обхват груди за лопатками и обхват пясти в зависимости от окрасок и сделаны выводы.*

**Ключевые слова.** *Афганский генотип, поколения, возрастная динамика, промеры тела, окраска.*

**Annotation.** *In this article, measurements of the body of the offspring of the Afghan genotype from birth to 12 months in age dynamics are determined, the parameters of body measurements are determined: height at the withers, oblique length of the trunk, chest width, chest girth behind the shoulder blades and pastern girth depending on the colors and conclusions are drawn.*

**Keywords.** *Afghan genotype, generations, age dynamics, body measurements, coloring.*

**Kirish.** *Qorako‘l qo‘ylari ham boshqa uy hayvonlari kabi o‘ziga xos yashash sharoitlariga ega. Asrlar davomida ana shu sharoitda seleksiya jarayonida ularning biologik va mahsuldorlik xususiyatlari shakllangan.*

*Ustyurt platosida yaylov chorvachiligining asosiy tarmoqlaridan biri qorako‘lchilik sohasi hisoblanadi. [1; S-135] ma‘lumotlarida keltirilishicha, qorako‘lchilik sohasi orol dengizining qurigan tubini o‘zlashtirishda muhim ahamiyat kasb etishi e‘tirof etilgan.*

Ushbu hudud keskin kontinental iqlimli va qurg'oqchilikka chidamli o'simliklar dunyosi bilan ajralib turadi va qorako'lchilik sohasi uchun ozuqa bazasi hisoblanadi.

Shuni ta'kidlash joizki, ko'p sonli tadqiqotchilar fikriga ko'ra, [3; B-170], [4; B-22], ko'k rangli qo'zilarining o'sib-rivojlanishi birnecha omillarga bog'lik bo'lib, hayvonning individual xususiyatlariga, konstitutsiya tiplariga, teri tipiga bog'likdir.

Bizning tajriba ishlarimizda avg'on genotipiga mansub ko'k rangdagi qo'chqorlar Avg'oniston davlatidan olib kelingan bo'lib, 2021 kuz faslida mahalliy qora rangdagi qo'ylarga juflash natijalaridan olingan avlodlarning o'sib-rivojlanishini yoshi dinamikasida aniqlash tadqiqotning asosiy negizi hisoblanadi.

**Tadqiqotning maqsadi.** Avg'on genotipiga mansub ko'k rangdagi qo'chqorlardan olingan avlodlarning yoshi dinamikasida tana tuzilishi va tan indekslarini yoshi dinamikasida o'zgarishini aniqlash tadqiqot ishining maqsadi qilib belgilandi.

#### **Tadqiqot usullari.**

Tajriba ishlarini bajarish maqsadida 2021 yil kuz faslida 2-ta otar ko'k va qora rangdagi 2,5-4,5 yoshdagi asosan jaket tipidagi 1-navli qorako'l qo'ylaridan tashkil qilindi va avg'on genotipiga mansub ko'k rangdagi qo'chqorlar urug'i bilan urug'lantirildi.

2022 bahorida qo'zilarining tana tuzilishi yoshi dinamikasi aniqlanilib, tana tuzilishi indeksleri hisoblash yo'li bilan topildi.

Tana tuzilishi va tana tuzilishi indeksleri [2; B-296] usuli asosida olib borildi va statistik qayta ishlandi.

**Tadqiqot ob'ekti.** Tadqiqot ob'ekti sifatida avg'on genotipiga mansub ko'k rangdagi qo'chqorlardan olingan ko'k va qora rangdagi qo'zilar yoshi dinamikasida olindi.

Shu munosabat bilan biz ko'k rang va qora rangdagi qorako'l qo'ylarining o'sib-rivojlanish xususiyatlarini o'rganish vazifa qilib oldik.

Bizning tadqiqot ishlarimizda o'sib-rivojlanish ko'rsatkichlari 1-jadvalda o'z aksini topgan.

#### **1-jadval**

#### **Olingan avlodlarning tana o'lchamlari, sm.**

<b>Tana o'lchamlari</b>	<b>Ko'zilar rangi</b>					
	<b>Tug'ilgan davrda</b>	<b>5,5-6,0 oylik davrda</b>	<b>12-oylik davrda</b>	<b>tug'ilgan davrda</b>	<b>5,5-6,0 oylik davrda</b>	<b>12-oylik davrda</b>
	<b>Ko'k</b>			<b>Qora</b>		
	<b>X±Sx</b>					
<b>Yag'rin balandligi</b>	34,2±0,13	54,7±0,48	65,9±0,54	35,3±0,31	55,6±0,45	66,9±0,61
<b>Gavdaning qiya uzunligi</b>	28,3±0,14	54,6±0,48	63,4±0,52	30,3±0,28	55,5±0,47	64,4±0,54
<b>Gavda</b>	13,8±0,12	23,3±0,17	29,3±0,26	14,5±0,11	24,3±0,19	30,6±0,28

chuqurligi						
Gavda kengligi	7,8±0,23	13,6±0,14	17,9±0,30	8,4±0,11	14,3±0,3	17,8±0,3
Gavda aylanasi	38,5±0,24	68,4±0,49	80,9±0,72	39,9±0,32	69,1±0,51	82,3±0,76
Poycha aylanasi	5,3±0,11	6,8±0,32	7,1±0,21	5,4±0,35	6,7±0,43	7,0±0,52

1-jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, avlodlarning tana o'lchamlari bo'yicha ranglar kesimida farqlanishlar kuzatildi. Yag'rin balandligi bo'yicha tana o'lchamlari ko'k rangdagi qo'zilar tug'ilgan davrda 34,2±0,13 sm-ni tashkil qilgan bo'lsa, 5,5-6,0 oylik yoshi davriga kelib, bu ko'rsatkich 54,7±0,48 sm-ga teng bo'ldi. Yag'rin balandligi bo'yicha 12-oylik davrida esa, 65,9±0,54 sm-ni tashkil qildi. Qo'zilar tug'ilgan davridan 5,5-6,0 oylik davrigacha muddatda jadal o'sishi bilan tavsiflanadi. Bunday jarayon qora rangdagi qo'zilar kuzatilib, Shunga mos ravishda 35,3±0,31 sm, 55,6±0,45 sm va 66,9±0,61 sm-ni tashkil qildi. Shuni takidlash lozimki, yag'rin balandligi bo'yicha ranglar kesimida farqlanishlar kuzatiladi qora rangdagi qo'zilar ko'k rangda nisbatan jadalroq o'sishi kuzatildi. Ushbu farqlanishlar 5,5-6,0 oylik davrigacha 0,9 sm va 12-oylik davrida 1,0 sm-ni tashkil qildi.

Gavdaning qiya uzunligi bo'yicha olingan ma'lumotlarda ham qora rangdagi qo'zilarning biroz gavdali ekanligi ko'rish mumkin. Ushbu ko'rsatkich bo'yicha, Gavdaning qiya uzunligi bo'yicha tana o'lchamlari ko'k rangdagi qo'zilar tug'ilgan davrda 28,3±0,14 sm-ni tashkil qilgan bo'lsa, 5,5-6,0 oylik yoshi davriga kelib, bu ko'rsatkich 54,6±0,48 sm-ga teng bo'ldi. Gavdaning qiya uzunligi bo'yicha 12-oylik davrida esa, 63,4±0,52 sm-ni tashkil qildi.

Gavda chuqurligi bo'yicha olingan ma'lumotlarda ko'k rangdagi qo'zilada yoshi dinamikasida 13,8±0,12, 23,3±0,17 va 29,3±0,26 sm-ni tashkil qilgan bo'lsa, shunga mos ravishda qora rangdagilarda 14,5±0,11, 24,3±0,19 va 30,6±0,28 sm-ga teng bo'ldi. Bunday farqlanishlar gavda kengligi va gavda aylanasi tana o'lchamlarida ham kuzatildi.

Poycha aylanasi ko'rsatkichlari bo'yicha, olingan ma'lumotlarda deyarli farqlanishlar (0,1 sm) kuzatilmadi.

**Xulosa.** Tug'ilganda davrida ko'k rangli qo'zilar, qora qo'zilarga qaraganda jussasi biroz kichikroq bo'lib, farqarqlanishlar 3,2 % tashkil qilib ushbu farqlanish 5,5-6,0 oylik davrigacha saqlanib qolib, 12- oylik davriga kelib farqlanishlar kamayish tendensiyasi kuzatiladi. ya'ni ko'k rangli qo'zilar qora rangdagi qo'zilar kabi ustyurt sharoitida yaxshi o'sib-rivojlanadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Ажиниязов Б.К.. Монография. Исследование продуктивных и биологических особенностей серых каракульских овец в условиях Каракалпакии, Нукус-2022 год, с.135.
2. Красота В. Разведение сельхоз животных //М. Колос.1985. – С.296.
3. Стояновская В. И. Разведение серых каракульских овец// Т. изд. «ФАН». Ташкент. 1966. – С. 170.
- 4.Хакимов У. Эффективность селекции серых каракульских овец по ценной завитковой площади смушек// Автореф. канд. диссер.Ташкент. 2002. – С. 22.
5. Elmuratotovna, S. F., Shavkatovich, B. F., & Amirovich, E. Y. Incubation Quality of Eggs of Different Category of Cross Lohmann Lsl-classic. JournalNX, 286-290.
6. Elmuratotovna, S. F., Shavkatovich, B. F., & Amirovich, E. Y. Egg Productivity of Chickens of Imported Crosses. JournalNX, 388-392.
7. Бойматов, О. С., & Холмирзаев, Д. (2024, January). РОСТ И РАЗВИТИЕ ПЛЕМЕННЫХ КОБЫЛ КАРАБАИРСКОЙ ПОРОДЫ. In E Conference Zone (pp. 39-42).
8. Қўзиев, И. Қ., Файзуллаев, О. Б., Тўхтаев, О. Б., & Бойматов, О. С. (2022). ОЗУҚА БАЗАСИНИ МУСТАҲКАМЛАШДА СЕНАЖ ТАЙЁРЛАШНИНГ АҲАМИЯТИ. AGROBIOTEKNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI, 844-847.
9. Аралбаев, Ж., & Джумабаев, Д. (2011). СОЗДАНИЕ И РАЗВЕДЕНИЯ КАРАКУЛЬСКИХ ОВЕЦ СУР БУХАРСКОГО ТИПА. Овцы, козы, шерстяное дело, (2), 19-20.
10. Рузимурадов, Р. Р., Бойматов, О., & Аманова, О. (2020). ОСОБЕННОСТИ КАРАКУЛЬСКИХ ЯГНЯТ РАЗНЫХ СРОКОВ ЯГНЕНИЯ. In СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ, ТРАДИЦИИ И ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В РАЗВИТИИ АПК (pp. 146-150).
11. Қўзиев, И. Қ., Файзуллаев, О. Б., Тўхтаев, О. Б., & Бойматов, О. С. (2022). ОЗУҚА БАЗАСИНИ МУСТАҲКАМЛАШДА СЕНАЖ ТАЙЁРЛАШНИНГ АҲАМИЯТИ. AGROBIOTEKNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI, 844-847.
12. Bobokulovich, S. S., Ugli, B. O. S., & Ugli, I. K. N. (2021). Thickness, Silkiness and Shine of The Hairline of The Offspring of Rams of Different Factory Types.
13. Бойматов, О. С., & Холмирзаев, Д. (2024, January). КОРМЛЕНИЕ ПЛЕМЕННЫХ КОБЫЛ В ПЕРИОД ЖЕРЁБОСТИ. In E Conference Zone (pp. 8-11).